

«Suv-mo'jiza» tanloviga

## UNGA RAHMIM KELDI

Men tanlovga hikoya yozib yuborishga qaror qildim. Uni tengdoshlarim o'qib, xulosa chiqarishsa, deyman.

Bir kuni kuchugim Olapar tovoqdagi suvini ichib, qolganini panjasni bilan turtib yubordi. Shu kundan boshlab unga suv bermay qo'ydim. Chunki u toza ichimlik suvini isrof qilgandi-da! Oxiri unga rahmim keldi. Tovog'iga toza suv quyib berdim. U shosha-pisha suvini icharkan, «rahmat» degandek menqa qarab-qarab qo'ydi va qolganini asta ini tomon surdi. Qarang, jonivorlarga ham tushuntirsak, suvni qadrlashar ekan.

Furqat KARIMOV,  
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumani

## BAXTIMIZ QOMUSI

Mana bu rasmidagi men. Qo'limdag'i bayroqni maktabimizdabo'lib o'tgan Konstitutsiyamizning 16 yilligi bayramida ko'tardim. Ustozimning aytishlaricha, bu hammamizning bayramimiz ekan. Chunki qonunlar avvalo biz uchun, barchamiz yaxshi yashashimiz uchun yozilar ekan.

Qonun-qoidalarni nima uchun kerakligini maktabimiz nizomidagi qoidalardan ham yaxshi bilamiz. Ular bor joyda tartib-intizom bor. Shuning uchun biz bolalar qoidalarni bilib, rivoja qilishimiz kerak. Maqtabimiz rahbari Alisher aka Fatxullayev ham tartibli o'quvchilarini yaxshi ko'radir. Men ham doim yaxshi bola bo'lismaga harakat qilaman.

Mirahmad RIZAYEV,  
Sobir Rahimov tumanidagi 22-maktabning 4-«B» sinf  
o'quvchisi



2008-yil  
8-dekabr  
N:49  
(66694)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

ISSN - 2010-6092

## 8-DEKABR – O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGAN KUN

### QOMUSLI EL – NOMUSLI EL

Xalqimizda «Qomusli el – nomusli el» degan ajoyib naql bor. Darhaqiqat, qonun ustuvor bo'lgan har qanday jamiyatda insonlarning erki, ozodligi, farovonligi to'la ta'minlanishi tayin. Bizning huquq va burchlarimizni o'zida to'la mujassam etgan qomusimiz ham bugungi kunda har bir fuqaro uchun dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. U orqali biz o'zimizning huquq va burchlarimizni yaqqol anglayapmiz.

Shu munosabat bilan maktabimizda Konstitutsiyamiz qabul qilinganligining 16 yilligiga bag'ishlangan «Qomusimiz – baxtimiz», «Zakovatl yoshlar», «Baxtimiz poydevori», «O'z huquqingizni bilasizmi?», «Kitoblarda hayot ko'zgusi» mavzularida sinflararo tadbirlar o'tkazdik.

Ayniqsa, maktabimizning 9-«A» va 9-«B» sinflari o'rtaida o'tkazilgan «Siz qonunni bilasizmi?» nomli bilimdonlar bahsi ko'pchilikka manzur bo'ldi.

Bir so'z bilan aytganda, har bir tadbir orqali o'quvchilarimiz o'z huquq va burchlarini yana-da chuqurroq anglab borishyapti.

Mavlonxon BOBOXONOV,

Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumanidagi 27-maktabning ma'naviy va ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinosari

Respublikadagi tengdoshlarim hayotiga oid yangiliklardan boxabar bo'laman, sevimli adiblarimizning yangi asarlarini birlinchilardan bo'lib o'qiymen, «Quvnoq tanaffus»dagi hangomalarini o'qib, vaqtimni chog' o'tkazaman

DESANGIZ,  
TEZROQ «TONG YULDUZI»GA  
OBUNA BO'LING!

Nashr ko'rsatkichimiz: 198



*Bobolaring qo'li duoda,  
Ko'ksing baland, misli tog', yurtim.*

*Farzandlaring boldayin laziz  
Mevalaring, bag'ri bog'yurtim*

*Ayyomlaring muborak bo'lsin!*

## BOLALAR DUNYOSI ROST DUNYO

Aziz bolajonlar! Siz uchun bir-biridan mazmunli she'rlar-u hikoyalar yozadigan bolalar shoirlarini yaxshi taniyisz-a? Ha, ular bizning maktabda mehamon bo'lishgan, ajoyib uchrashuvlar qilishgan, deysizmi? Anashub ola jogn ijodkorlarimiz siz uchun qanday asarlar yozish kerak va sizni nimalar qiziqtirishini o'zaro maslahatlashib olishini bilasizmi? O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida Bolalar adabiyoti kengashining ana shunday yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda o'sha maktabingizdagagi uchrashuvga kelgan Tursunboy Adashboyev, Safo Matjon, Rustam Musurmon, Kavsar Turdiyeva, Abdurahmon Akbar, To'lqin Hayit, Dilshod Rajab kabi ijodkorlar ishtirok etishdi. Ular shu vaqtgacha bo'lgan bolalar adabiyoti masalalarini muhokama qilishar ekan, Tursunboy Adashboyev bolalar dunyosi rost dunyo ekanini va bu dunyo adabiyotida faqat ro'yrost, beg'ubor tuyg'ular bilan ijod qilmoqlik kerakligini ta'kidladilar.



## MENGA DASTXAT QO'YIB BERING...

Siz ham o'zingiz sevib o'qiydigan asar yozuvchisiga dastxat qo'ydirib olishni istasangiz kerak?! Yangiyo'l tumanidagi 23-maktab o'quvchilarining bu orzulari amalga oshdi. Bu maktabda «Tong yulduzi» kunlari davom etdi. O'quvchilarining aytishlaricha, ular bu yili gazetamizga har yilidan ko'proq nusxada obuna bo'lishibdi. Bolalar shoiri Abdurahmon Akbar shu maktabda tahsil olgan ekan. Uchrashuvda o'quvchilar shoirning she'rlaridan bahramand bo'lishdi. O'zları she'r mashq qilib turadigan o'quvchilar ham talaygina ekan. Ular ham o'z she'rleridan o'qib berishdi. Va ijodkorlarning bergan sovg'alaridan mammun bo'lishdi. Axir kitob va gazeta-jurnaldan yaxshiroq sovg'a bormi? Maktab direktori Yoqubjon Soibnazarov tadbirga yakun yasar ekan, o'quvchilar bunday maroqli uchrashuvlarni yaxshi ko'rishlarini ta'kidladi.



## BIZDA HAM UCHRASHUV

Shahrimizning Sobir Rahimov tumanidagi 111-maktab o'quvchilarini uchrashuv bo'ldi, deyishayotgan bo'lsa kerak? Ha, bu maktabda milliy «Tilga e'tibor-elga e'tibor» nomli va qomusimizga atalgan tadbir bo'lib o'tdi. Bayramda Tursunboy Adashboyev, Rustam Musurmon, To'lqin Hayit kabi ijodkorlar ham ishtirok etishdi. Unda rosa bayram qizg'in bo'libdi-da, desangiz, adashmaysiz. O'quvchilar o'zları tayyorlab qo'yishgan sahna ko'rinishlari-yu turli chiqishlari bilan mehmonlarni xushnud etishdi. So'ng, mazza qilib yozuvchi shoirlarimizning ijodlarini tinglashdi. Bu tadbirdan to'lqinlanib, bizning maktabda ham uchrashuv bo'lsin desangiz, marhamat!

«Tong yulduzi» har bir maktabga kirib borsin!

O'z muxbirimiz

## BIR MAKTABGA 120 TA «TONG YULDUZI»

Tahririyatimiz xodimlari «Tong yulduzi»ni respublikamizning qaysi hududidagi o'quvchilar ko'proq o'qib, kuzatib borishi bilan qiziqib ko'rdi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, Samarqand viloyati o'quvchilar bosqqa viloyatlardagi tengdoshlariga qaraganda, bizning gazetaga obuna bo'lishda peshqadam ekanlar. Zero, mazkur yilda samarqandlik o'g'il-qizlarning o'n ikki mingdan ziyodi gazetamizga obuna bo'lishgan. Undan keyingi pog'onani Farg'ona, Andijon va namanganlik o'quvchilar egallab kelishgani ham tahsinga sazovor.

Shu munosabat bilan yaqinda gazetamiz xodimlari Samarqand viloyati bo'ylab ijodiy safarda bo'lib qaytishdi.

Bu yerda biz viloyat va Urgut tumani yoshlaringiz gazetamizga bo'lgan qiziqishlari va mehrlari o'zgacha ekanligiga amin bo'ldik. Buni o'tgan mavsumda tuman o'quvchilarining ikki mingdan ziyodi «Tong yulduzi»ga obuna bo'lganliklaridan ham bilsa bo'ladi. Shuningdek, bu yerdagi o'quvchilar uchun yaratilgan imkoniyatlar, shart-sharoitlarni ko'rib quvondik. Quvonmay bo'ladimi, bundan bir necha yillar oldin qishloq joylarida zamonaviy maktablar qurilishini, o'quvchilar esa internet orqali dunyo bolalari bilan muloqot qilishini kim ham xayoliga keltiribdi...

Tuman Xalq ta'limi bo'limi rahbari Qunduz aka Asqarovning amalga oshirilayotgan ishlari haqida to'lqinlanib gapirishi barchamizni zavqlantirdi:

-Bugungi kunda tumanimizda 136 ta maktab mavjud bo'lib, ularda 89 mingga yaqin o'quvchi ta'lim olmoqda. «2004-2009 -yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturiga» asosan tumanimizda ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Mazkur yilga kelib dasturga binoan 77 ta maktab kapital rekonstruksiya, kapital ta'mir va joriy ta'mirdan chiqarildi. Kelgusi yilda bu ko'rsatkichni 99 taga yetkazishni rejalashtiryapmiz. Hozirda qolgan 22 ta maktabda qurilish va ta'mirlash ishlari boshlab yuborilgan. 2011-yilga qadar qolgan barcha maktablarda ham ta'mirlash ishlari o'z niyoyasiga yetadi. Tumanimizdagagi har bir o'quvchi hozirda yoshlarning sevimli nashri bo'lgan «Tong yulduzi» gazetasini muntazam o'qib boradi. «Obuna – 2009»da ham o'quvchilarimiz faol ishtirok etib kelmoqda. Noyabr oyi ma'lumotlariga ko'ra, mingdan ortiq o'quvchimiz obuna bo'lib ulgurishdi. Kelasi yil ko'rsatkichlarimiz yana-da yaxshi bo'lishi aniq.

Tumandagi Alisher Eshboyev direktorlik qilayotgan birligina 84-umumta'lim maktabining 120 ga yaqin o'quvchisi «Tong yulduzi»ga obuna bo'lganligini eshitib, yana-da quvondik. 54-maktab o'quvchilarini ham bu borada juda faol ekanlar. Yil yakunigacha bu ko'rsatkichlar yana o'sishi tabiiy.

Ochil aka Rahmatov boshchilik qilayotgan tuman o'quvchilar ijodiyot markazi yoshlari ham obunani tashkil etishda yaxshi natijalar ko'rsatishmoqda. Bugungi kunda 23 yo'naliish bo'yicha faoliyat yuritayotgan markazda 3994 o'quvchiga 113 nafer ustozlar ta'lim-tarbiya berib kelmoqdalar. Markazning asosiy yo'naliishlari – xalq amalay-milliy san'ati, zardo'zlik, kashtachilik va hunarmandchilik bo'yicha tuman yoshlari viloyat va respublika ko'rik-tanlovlarida munosib ishtirok etib, faxrli o'rinnarga sazovor bo'lmoxdalar. 2007-yilda «Xalq hunarmandchiligi» respublika ko'rik-tanlovida zardo'zlik yo'naliishi bo'yicha tuman o'quvchilarini birlinchi o'rinni qo'lgan kiritishdi.

Xullas, safardan katta taassurotlar, ko'plab ma'lumotlar bilan qaytdik. Samarqandlik o'g'il-qizlarning ibratli ishlari haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'ldik. Gazetamizning navbatdagagi sonlarida ular haqidagi qiziqarli maqolalar berib borishni rejalashtirib qo'yidik.

Sherali NAMOZOV

## SEHRLI

(Hikoya)

Sharofat opani to'satdan maktabga ishga chaqirib qolishdi.

Ona mudira bilan gaplashib, o'g'il-illarini dala bog'chasiga joylashtirdi. To'lqinjon o'rta guruhga, Erkinjan esa yasli guruhga qatnay boshladgi.

Erkinjon chaqaloqligidan nimjon, shuning uchunmi, salga injiqlanaverar, akasidan sira ajralmas edi.

Bir kuni bog'chada sochlari yoyiq, katta charm g'ilof ko'targan ko'zoynakli opa paydo bo'ldi. Tarbiyachi Fotima opa «Bundan buyon har seshanba kuni musiqa mashg'uloti o'tasizlar. Klara opangiz sizlarga kuy, qo'shiq o'rgatadi», deb qoldi. UKasini tizzasida olib o'tirgan To'lqinjon bu asbobni faqat televizorda ko'rghan, ovozi qanaqaligini bilmaydi.

Bolalarning ko'zları chaqnab, qilt etmay o'tirishar, Erkinjon begonasirab battar akasining pinjiga tiqilar edi.

Klara opa qalin tasmani boshidan kirgazib, «Andijon polka»ga chaldi. Devorlari yoriq, eski, zax xonaga jon kirdi. Opa hammani raqsga taklif etdi.

To'lqinjon kelasi seshanbasi sabrsizlik bilan kutdi. Egnida qop-qora uzun ko'yak, yumaloq yuzli opa va uning sehrli ovoz taratuvchi asbobi To'lqinjonning sira ko'z o'ngidan ketmay qoldi.

Kuzning iliq seshanba kuni.

Bolalar kursilarni peshayvonga tashidilar. Aslida dala shiyponi bog'cha vazifasini o'tar, oshpaz, farrosh xolalar paxta terimida. Barcha yumush Fotima opaning zimmasida. O'n-o'n besh bola bir xonada ham ovqatlanadi, ham ugraydi. Qo'li siniq, sochi patak qo'g'irchoq,




## Yosh muxbirilar yozadilar

OLTI BO'LIM  
KITOBIM

Olti bo'lism kitobim,  
Yigirma olti bobim.  
Bir yuz yigirma sakkiz,  
Modda, qonun, odobim.  
Bu – baxtnoma kitobi,  
Yurt qomusi, oftobi,  
Adolatning xitobi,  
Bo'lgil mudom ustuvor.  
Bu – istiqlol qomusi,  
Vatanimning nomusi,  
Ham mayog'i, yog'dusi,  
Bo'lgil mudom ustuvor.  
Humo qush bu – tinchligim,  
Metindek jipsligim,  
O'zbek davlatchiligidim,  
Bo'lgil mudom ustuvor.  
Huquq, burch, qadr-qimmat,  
Adolat buyuk ne'mat,  
Mo'ydin bo'l olivhimmat,  
Qomusim bo'l ustuvor.

*Mo'ydin MATKARIMOV,  
Namangan viloyati, Pop  
tumani*



## DOIM XAT YOZAMAN

Men «Tong yulduzi» gazetasini juda ham yaxshi ko'rib o'qiyman. Uning ijodkorlari bilan yaqindan tanishgim keladi. Doim maktub yozib turaman. Bu galgi xatimda gazetaga atab yozgan she'rimni ham yo'llamoqdamam.

Bolalikning nafis timsoli,  
Beg'uborlik unda aks etar.  
Xuddi oppoq orzu misoli,  
Hayotimiz munavvar etar.

Bolalarning quvonchi-shoni,  
Ko'ngillarga quvond baxsh etar.  
Gar o'qisa mo'ysafid odam,  
Bolalikni unga eslatar.

Bunda bahor kabi musaffo,  
Ufuradi yoshlik nafasi.  
Kamalakning yetti rangidek,  
Rango-rangdir har sahifasi.

Nur sochadi oftobga o'xshab,  
Subhidamning zarrin yuzida.  
Orzularim ushaldi mening,  
Tahririyat «Tong yulduzi»da.

Abdulaziz MAMADALIYEV,  
Andijon viloyati, Balqchi tumani

TO'G'RI SO'Z  
QUDRATI

Qadrli bolalar!

Bekatdagi bugungi  
suhbatimiz mavzusi to'g'ri  
so'zlash xususida  
bo'lishiga nima deysiz?  
Bu mavzu sizni ham  
qiziqtirishi turgan gap,  
chunki har kuni to'g'ri  
so'zlab, ota-onangizni  
xursand qilasiz,  
do'stlarining qalbiga  
yo'l topa olasiz.

Qani, aytin-chi, siz  
ham biror marta yolg'on  
gapirganmisiz? Sezib  
turibman, gapirsangiz va  
albatta, buning uchun  
pushaymon bo'lgansiz. Chunki yolg'on gapning  
umri qisqa. Birovni aldab, uni dog'da qoldirish  
aslo yaramaydi. Zero, yolg'on fosh bo'lgach,  
o'zingiz o'sal bo'lib qolasiz. Qani, aytin-chi,  
bundan kimga foyda-yu kimga zarar?

Aziz farzandlarim, eng avvalo, hayotda halol  
va pok yashashga o'rganmoq darkor. Buning  
uchun doimo to'g'ri so'zlashga odatlangan  
ma'qul. Siz bilim cho'qqisini puxta egallayotgan  
bir paytda to'g'ri va yolg'onning farqiga borib,  
uni bir-biridan ajrata olishingiz lozim, deb  
hisoblayman. Agar buni o'z vaqtida uddalay  
olmasangiz, o'zingiza qiyin bo'ladi. Zero, bir  
kishiga yolg'on gapirsangiz, boshqalarga ham  
shunday yo'l tutasiz. Bora-bora shunga ruju  
qo'yib, yolg'on gap bilan ish bitirishga o'rganib  
qolasiz. Bu esa sizni boshqalar nazarida beburd  
qilib qo'yadi.

Aslida yolg'on gapirish juda oson. Aytaylik,  
ota-onangizga maktabda olgan bahoingiz xususida  
to'g'risini aytmaysiz. Yoki bo'limasa, darsga  
tayyorgarlik ko'rmay turib, uni zo'r bilaman, deb  
og'iz ko'pirtirishga nima deysiz? Boringki,  
tengdoshlarining qo'lingizdan hech vaqo  
kelmasa ham, har qanday ishni do'ndiraman, deb  
maqtanishga nima deysiz?

Balki yolg'on so'zlashdan shunchaki huzur  
qilarsiz, o'zingizcha mag'rurlanib yurarsiz?  
Ammo uni yaxshi bilingki, bunday nojo'ya xatti-  
harakatning oxiri voy! Yolg'onning misi chiqqach,  
sizga ishonmay qo'yishlarini xayolingizga  
keltirganmisiz? Ana shundan so'ng, hatto to'g'ri  
so'zga ham inonmaydiganlari topilib qolsa, ajab  
emas. Afsuski, qancha urinmang, bir bor yolg'on  
so'zlash ham atrofdagilar oldida yuzingizni shuvut  
qilib qo'yadi.

Har bir o'g'il-qiz puxta bilim olib, hayotda o'z  
o'rnini topgan holda komil inson bo'lishni orzu  
qiladi. Chunki har biringizni yorqin istiqbol  
kutmoqda. Kelajakning sinovlari esa bisyor. Uni  
faqat to'g'ri so'zlab, yaxshi odamlardan o'rnak  
olib bartaraf etish mumkin. Shuning uchun ushbu  
dildagi gaplarim quloqlaringda bo'lsin:

*To'g'ri so'z yurakka og'ir botsa-da,  
ammo mushkulni oson qiladi.*

*Kinnidir aldasang, seni aldovchilar ham  
topiladi.*

*Yolg'on so'zlash bamisolai zahar yutish  
kabi asoratlari ekanligini ayrimlar o'z vaqtida  
anglab yetishmaydi.*

*Yolg'on so'zlab, o'z haqligini uqtiradigan  
kimsalarning umri behalovat kechadi.*

*Islam USMONOV*

## HUQUQDA BIZ BIRINCHI

Konstitutsiyamizda bizning huquqlarimiz bilan birga burchlarimiz ham yozib qo'yilgan ekan. Masalan, Vatan oldidagi fuqarolik va ota-onamiz uchun farzandlik burchimiz borligini unutmashligimiz kerak. Shuning uchun bizning maktabda huquq darsiga katta e'tibor beriladi. Va buning natijasi o'laroq, maktabimiz Adliya vazirligi tomonidan o'tkazilgan «Inson huquqlari umumjahon deklaratasiyasining 60 yilligi»ga bag'ishlangan tadbirda I-o'rinni egalladi. Shundan so'ng yana-da bu fanga qiziqishimiz ortdi. Endi barchamiz Konstitutsiyamizni chuqurroq o'rganib olmoqchimiz.

*Musharraf MUHAMMADIYEVA,  
Buxoro shahridagi 34-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi*



## KUY

ching jildiga yopishishdi.  
Yaxshiyam To'lqinjon ukasini uxlatgan ekan, mazza qilib  
qo'shiq o'rganadigan bo'ldi.

Bolalar «Bulbulcham» qo'shig'i matnini avval takrorlashdi,  
keyin kuyga solib aytishdi. Birdan Fotima opa To'lqinjonnini imlab  
chaqirdi. Bola o'zini ko'rma ganga solib, qo'shiq kuylayerdi.  
Musiqachi opaning nozik barmoqlari chiroli yaltiroq  
tugmachalarni bosgani sayin kuy avjiga chiqaverdi.

Ichkaridan Erkinjonning yig'isi eshitildi. Hamma  
To'lqinjonga qaradi. U cho'ntagidan barmoqdek so'rg'ich

chiqardi-da, ichkariga yugurdi. O'zini uxlaganga solib, ukasining  
yoniga cho'zildi. Erkinjon jazzi qo'llari bilan akasining bo'ynidan  
achomlab, ko'zlarini yumdi.

To'lqinjon asta turib eshik tomon yo'naldi. Ukasi yana  
g'ingshidi. Akasi «obbolab» yana uxlatmoqchi bo'ldi, ammo  
Erkinjonning uyqusi o'chgan edi.

To'lqinjon uni opichlab deraza oldiga bordi. Ko'p o'tmay,  
musiqachi opa asbobini yelkasiga osib, yo'lga tushdi.

Kelasi seshanbani To'lqinjon sabrsizlik bilan kuta boshladni.  
Endi Erkinjon ancha sog'aygan, boshqa bolalardan  
begonasiramaydigan bo'ldi. Vaqt imillar, oldinda hali yakshanba,  
dushanba kunlari bor edi. To'lqinjon bahonada hafta kunlarini  
chalkashirmaydigan bo'ldi.

Seshanba kuni nima uchundir Klara opa ko'rinnadi. Bolalar  
yog'och panjaraga qator tizilishib yo'l poylashdi. Ular har kuni  
«qachon musiqa bo'ladi», deya bog'chani boshlariga  
ko'tarishadi.

Bir kuni Fotima opa, musiqachi paxta terimida ekan, deb  
qoldi. Mavsum tugagach, kunlar sohib bog'cha yopildi...

To'lqinjonning maktabida musiqa darslari qiziqrli o'tadi. U  
yosh havaskorlar to'garagiga qatnaydi. O'zi ham doira, rubob  
asbobi yordamida kuylar chaladi.

Ammo bog'chadaga o'sha akardionning sirli ohangi sira  
qulog'idan ketmaydi.

*Muhayyo TO'LAGANOVA*

Maqsud Shayxzodaning 100 yilligiga

**MANGULIKKA DAHLDOR**

O'zbek adabiyoti tarixida shunday siymolar borki, ular o'zlarining salmoqli ijodi bilan hamisha barhayotdirlar. Benazir shoir, dramaturg, olim, tarjimon va mehribon ustoz Maqsud Shayxzoda ana shunday mangulikka dahldor insonlardan biridir.

Yaqinda bilim maskanimizda «Ona tili fani oyligi» munosabati bilan o'tkazilgan tadbir ana shu benazir ijodkor tavalludining 100 yilligiga bag'ishlandi. Unda ishtirok etgan 5-,


9-sinf o'quvchilari M. Shayxzodaning hayoti va ijodiga oid sahna ko'rinishlari, ochiq darslar, insho va bayonlar, referatlar, bukletlar va devoriy gazetalar tanlovinin o'tkazishdi.

Tadbirimizda Shayxontohur tumanidagi 38 ta maktabning ona tili o'qituvchilari qatnashishdi. Adib qalamiga mansub «Muqimiyy», «Bahorda yomg'ir», «Muallimim», «Toshkentnomma» dostonidan parchalar yoddan o'qishdi, «Iskandar Zulqarnayn» ertak-dostonidan, «Mirzo Ulug'bek», «Jaloliddin Manguberdi» dramasidan, «O'rtoq Navoiyga» balladasi asosida tayyorlangan sahna ko'rinishlari yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.

Maqsud Shayxzoda 1938-yildan qariyb umrining oxirigacha Nizomiy nomli Toshkent pedagogika institutida dars berdi, adabiyotshunos sifatida faoliyat olib bordi. U o'z ijodiy umrini sarhisob qilarkan: «Bu muqaddas vazifaga men ham o'rtoqlarim qatorida bir qatra hissa qo'shgan bo'lsam, demak, dunyoda behuda yashamabman, deb hisoblashga haqqim bor...», deb yozgan edi. Shoir o'zi yozganidek, o'zbek adabiyotiga qatra emas, salmoqli hissa qo'shdi, desak xato bo'lmaydi. Tadbir so'nggida insholar, buklet va referatlar ko'rlik-tanlovida g'olib chiqqan hamda fan oyligida faol ishtirok etgan o'quvchilarga «Faxriy yorliq» hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanildilar. Tadbirni tashkillashtirishda faollik ko'rsatgan ustozlarimiz Gulchehra opa Mirboboyeva hamda Lola opa Hidoyatova larning sa'y-harakatlari ham e'tibordan chetda qolmadidi. Shayxontohur tumanı xalq ta'limi bo'limi ona tili fani uslubchisi Ra'no opa Ortikova ular mehnatini alohida e'tirof etib, kelgusi ishlarida omadlar tiladilar.

Sarvinoz YOQUBJONOVA,

Shayxontohur tumanidagi 132-maktabning 7-«B» sinf o'quvchisi



**«KAMALAK» NING YETTI JILOSI**



qilinayotganliklardan benihoya xursand edilar. Shu kuni o'q u v c h i l a r quvonchiga biz ham sherik bo'ldik.

Tadbirni Respublikalari «Kamalak» bolalar tashkiloti raisi o'rinbosari Kamola Xolmo'minova ochib bergenlardan so'ng, 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan maktab o'quvchilaridan 100 nafari «Kamalak» bolalar tashkilotiga a'zolikka qabul qilindilar. Faol a'zolarni yosh iste'dod



Nasiba, Farhod va Shavkat Yunusobod tumanidagi 240-umumta'lim maktabida o'qir ekanlar. Bu a'lochi uch o'quvchi bilan Temuriylar tarixi Davlat muzeyida bo'lib o'tgan tadbirda tanishib oldik. Nasiba Halilovaning aytishicha, «Kamalak» bolalar tashkilotining yetti yo'naliishi bo'lib, u 5-sinfda o'qiyotgan paytidayoq «Mehr-shafqat» yo'naliishi sardori etib saylangan ekan. Ikki yildan buyon «Iste'dod» yo'naliishi bo'yicha sardorlikni qo'ldan bermayotgan Nasibaga maktab-doshlari havas qilishlarini sezdi. Shundanmi, Nasibaning do'stlari bugun o'zlarini «Kamalak» bolalar tashkiloti safiga qabul

sohiblari «Anion» va «Sharqona» guruhlari o'zraqslari va qo'shiqlari bilan qutladilar. Ko'tarinki ruhda o'tkazilgan tadbirdan so'ng ishtirokchilar Temuriylar tarixi Davlat muzeyidagi qadimiy qo'lyozmalar, Temuriylar shajarasи va bugungi kunda ular tomonidan qoldirilgan boy ma'naviy meroslari bilan yaqindan tanishdilar.

GULYUZ

**ENG ULUG' SO'Z**

Bu Vatan ekanini yaxshi bilasiz-a? Ustozim shu mavzuda insho yozish vazifasini bergenlarida, men Vatan haqida kitoblar o'qidim. Ishonasizmi, bobolarimiz bu muqaddas zaminga yuzlab go'zal ta'riflarni berishgan ekan. Men, ayniqsa, xalqimizning suyukli shoiri Muhammad Yusufning «Rimni alishmasman bedapoyangga», deb yozgan satrlaridan ta'sirlandim. Chindan ham bizning yurtimiz go'zal, qadimiy va kelajagi porloqdir. Unda har kunimiz bayram.

Mana, milliy qomusimizning qabul qilinganiga ham o'n olti yil to'ldi. Asarlarda o'qiganimizday, ajdodlarimiz doim yurt ravnaqiga hissa qo'shishga intilib yashaganlar. Shuning uchun biz yoshlar ham «Ertaga insonlarga mening qanday nafim tegadi, buning uchun bugun harakat qilyapmanmi?» degan savolni o'ylab yashashimiz kerak. Bizning orzu-o'ylarimiz shu Vatan, uning ravnaqi bilan bog'liq bo'lmoq'i kerak. Zero, insonning eng katta orzusi o'z yurtini doimo nurafshon ko'rish. Biz ana shunday orzular bilan tinch va osoyishta bilim olib, unib-o'smoqdamiz. Demak, biz baxtli bolalarmiz!

Osiyo XALIOVA,  
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi  
178-maktabning 9-«B» sinf o'quvchisi

**BILIMDON BOLANING VO'LI**

**Mushtariy MAMA-JONOVA 1994-yil 1-dekabrdagi Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahridagi ziylolar oиласида tug'ildi. Hozirda Yangiyo'l shahridagi 15-umumiyo'rta ta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi, Adabiyotga o'zgacha mehr bergan Mushtariyning sevimli mashg'ulotlaridan biri Zulfiyaxonim, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf singari shoirlarning she'rlarini mutolaq qilish hisoblanadi. Quyida uning bugungi yoshlar kiyinish madaniyatiga oid maqolasi bilan tanishasiz.**

**XUNUK AYOLLAR BO'L MAYDI**

Fransuzlarda shunday gap bor: «Xunuk ayollar bo'l maydi, faqtgina chiroyli bo'la olmagan ayollar bo'ladi». Aytylik, siz unchalik go'zal emassiz, qaddiqomatningiz ham kelishmagan. Shunga qaramasdan did bilan kiyina olsangiz, bunday kamchiliklaringiz yopilib ketadi. Sharq ayollari o'zlarining nafosatlari, hayo va ibolari bilan g'arbliklardan ajralib turadilar. Milliy matolardan zamonaviy bichimda tikilgan qulay liboslar o'zbek qizlariga so'zsiz yarashadi.

Ayrimlar qimmatbaho kiyimlarga xaridor bo'lishadi. Ana shunday qimmat narxdagi kiyim kishiga yarashmasa, u faslga ham, boradigan yeringizga ham nomunosisib bo'lsa, uning qimmatligi bir pul bo'lub qoladi. Masalan, mehmondorchilikka sport kiyimida borsangiz, garchi u qimmat bo'lsa-da, kulgili va erish tuyuladi. Shunday ekan, har bir kiyimni joyiga, o'rniga, sharoitga qarab tanlashning o'zi bir san'atdir. Millatimiz, elimiz bilan faxrlanib yashar ekanmiz, bunda kiyinish odobiga rioya qilishning, milliyligimizni yo'qotmaslikning o'zi katta ahamiyatga ega.

Kitob o'qiyotgan bola men orzu qilgan hamda qalbimga eng yaqin boladir. Chunki kitob o'qishni odat qilgan bolaning, avvalo, vaqtin behuda o'tmaydi. Ikkinchidan, uning bilimi ortib boradi. Bilimdon bolaning yo'li oydin, kelajagi porloq bo'lishiga ishonchim komil. Negaki, dunyoga dong taratgan yetuk insonlar ham bolalik paytidan kitob bilan oshno bo'lishgan-da!

Darsni tashlab qochadigan bola xuddi

yorug'likdan qochib, o'zini zulmatga uradigan ko'rshapalakka o'xshaydi.

Dangasalik xuddi bo'g'ma ilonga o'xshaydi. Bu ilon odamni emas, uning iste'dodini bo'g'adi.

O'ktam SULTONOV,  
Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi  
39-maktab o'quvchisi



2008

Tong yulduzi  
8-dekabr

## Quvnoq tanaffus

## KUTILMAGAN QO'NG'IROQ

Ba'zan darslarning tugashi juda qiyin bo'lib ketadi-da! Hammamiz qachon tanaffus bo'lar ekan, deb soatga qarayveramiz. Chunki ba'zi darslar zerikarlidек tuyuladi. Lekin men ingliz tili darsida hecham tanaffus bo'lib, darsimiz tez tugab qolishini xohlamayman. Bu darsimiz qiziqarli o'tadi. Biz bir-birimiz bilan inglizcha so'zlashishga, mashqlarni kim birinchi bo'lib yechishga berilib ketamiz. So'ng, darsning qanday tugaganligini ham bilmay qolamiz. O'z-o'zidan qo'ng'iroy chalini, birpasda tanaffus bo'lib qoladi. Qani endi, hamma darslar ham shunday soz o'tib, kutilmaganda tanaffus bo'lib qolaversa!

## DARSDA UXLAMANG!

Bilasizmi, ba'zi o'quvchilar darsda uxbab o'tirishadi. Va tanaffus bo'lganini bilmay qolib, sinfdoshlariga kulgi bo'lishadi. Bir kun bizning sinfda shunday bo'ldi. Qarasak, bir dugonamiz tanaffusda uxbab o'tirgan ekan. Ha, u kechqurun soatlab televizor ko'rgan yoki dugonalar bilan gaplashib o'tirib kech uxlagan-da! Mana endi oqibatini ko'ring. Aslida biz o'quvchilar bir sutkada 7-8 soat uxbab dam olishimiz kerak ekan. Kun tartibimiz bo'yicha esa kechki 22:00da uyquga ketishimiz lozim. Kun tartibiga rioya qilib, darslarni tetik holda, tanaffusni esa sho'x-shodon o'tkazaylik!

*Mafguna HAQBERDIYEVA, Shahlo IMOMOVA,  
A.Navoiy nomidagi Respublika  
Nafis san'at litseyi o'quvchilar*

## TOPISHMOQLAR

Shirin-shakar donasi,  
Yerdir uning onasi.  
Bargi yulduzchasimon,  
Bir tatib ko'ring, mehmon!  
Tovlanar g'ujum-g'ujum,  
Bu meva nomi ...

Laylak kabi uchib tushdi,  
Ushlasam, qo'lim uvushdi.  
Kaftimda u tin oldi,  
So'ngra, yo'qolib qoldi.

Ekinzorni oralab,  
Bug'doy donin saralab,  
Ortvolib biqiniga,  
Tashib ketar iniga.

Gulga qo'nib yayraydi,  
G'o'ng'ir-g'o'ng'ir sayraydi.  
Asalg'a ko'z olaytirsang,  
Darhol nishin qayraydi.

*Shahnoza G'ANIYEVA,  
Uchtepa tumanidagi 116-maktabning  
8-sinf o'quvchisi*


## DO'STLARIM YANADA KO'PAYDI

Yaqinda hayotimda katta o'zgarish sodir bo'ldi. Men o'qishimni boshqa maktabda davom ettiradigan bo'ldim. Sinfdos do'starimdan ayrilish juda og'ir bo'ldi. Oyijonim yangi maktabga borib direktordan: «Mening qizimni matabingizga olasizmi?» deb, so'raganlarida: «Albatta olamiz», maktabimiz eshiklari aziz bolajonlar uchun hamisha ochiq. Agar a'lachi va odobli bo'lsa, eshiklarimizni yana-da kengroq ochamiz», deya menga qarab muloyim jilmayib qo'ydilar.

Meni 3-«F» sinfiga olib kirishdi. O'qituvchimiz Maysara Xalilovna iliq kutib oldilar. Men yangi sinfdoshlarim bilan tezda chiqishib keta olarmikanman, degan hadik bilan sinfga kirdim. Ustozimiz sinfimiz o'quvchilari juda ahil va inoqligini ta'kidlab, meni ham tezda do'stashib ketishimga ishonch bildirdilar. Ular juda mehribon, talabchan, shu bilan birga, qattiqko'l inson ekanlar. Maktabimiz ham juda chiroysi, ozoda, o'quvchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Sport zallari zamonaviy sport anjomlari bilan ta'minlangan. Menga, ayniqsa, kompyuter xonasi yoddi. Darsdan keyin turli to'garaklar faoliyat ko'rsatadi. Sinfimizda a'lachi o'quvchilar ko'p. Bilimlarimizni sinab ko'rish maqsadida «Kim bilag'on?» tanlovini o'tkazamiz. O'qituvchimiz esa «hakamlik» qiladilar.

Kullas, har bir kunimiz qiziqarli o'tmoqda. Do'starim esa yana-da ko'paydi. Men bundan juda xursandman.

*Azizaxon MAHMUDOVA,  
Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi 322-maktabning  
3-«F» sinf o'quvchisi*



## XANDALAR

## O'qituvchi:

- Bolalar, bodring so'zi tuslanadimi, turlanadimi?
- Tuzlanadi, ustoz.

## O'qituvchi:

- «Muhabbatxon, sen kitob o'qidingmi?» gapidagi kesimni toping.

## O'quvchi:


- Bu gapda kesim yo'q. Chunki men kitob o'qimadim-da...



Ukalarim «shirindir»,  
Har ishda-chi, epchildir.  
Shashka o'ynashsa har on,  
Qolib ketar pahlavon.  
Zokirjon-chi, o'quvchi,  
Botirjon-chi, a'lachi.  
A'lo o'qib hamisha,  
Xursand qilar Zokirjon.  
Sho'xlik qilar Botirjon,  
Ukalarim aqlli –  
Bir-biridan biliqli.

*Muxlisa HALIMOVA,  
Qashqadaryo viloyati,  
Kashbi tumanidagi  
46-maktabning 9-sinf  
o'quvchisi*

## YORDAM BERING!




*Mafguna RAHMONBEKOVA tayyorladi*

«TONG YULDUZI»  
BIZNIKI

Rasmlarga boy o'zi,  
Boqib sira to'yayman.  
Ibratdir har bir so'zi  
Uni o'qib o'layman.

Bor yangi sahifasi,  
«Tanaffusda» o'qiymiz.  
«Tong yulduzi» bizniki  
Unga she'rlar to'qiymiz.

*Manzura  
ABDURASULOVA,  
Andijon shahridagi  
35-maktab o'quvchisi*



Men jilg‘aman-jilg‘aman,  
Daryo tomon chopaman.  
Ulkan suvga qo‘shilib,  
O‘z o‘rnimni topaman.

Shoir Fayzi Shohismoil 1938-yilda Gruziyaning Axalsiks tumanida tug‘ilib, o‘smirlik yillari Samarqandda o‘tgan. Keyinchalik Toshkent viloyatining Yangiyo‘l tumanida o‘rtta maktabni bitirib, Mirzo Ulug‘bek nomidagi Milliy universitetning jurnalistika fakultetini tugatgach, «O‘zbekiston ovozi», «Adolat» va «Ishonch» gazetalarida

## KOMILLIK TIMSOLI

O‘zbek bolalar adabiyotini turfa gullardan tuzilgan guldastaga qiyos qilaman. Xususan, she’riyatdagi rang-baranglik. Masalan, Miraziz A‘zam ijodiga xos bo‘lgan falsafiy ruh, o‘ychanlik Yo‘ldosh Sulaymon va Safar Barnoyevlar qalamidan to‘kilgan she’rlardagi vatanparvarlik g‘oyalari, Anvar Obidjon asarlaridagi nim kosa ostiga yashirilgan dadil fikrlar shu guldastaga zeb bag‘ishlaydi. Sulton Jabbor, Erkin Qambarlar bilan bir vaqtida adabiyotga kirib kelgan Fayzi Shohismoilning ijodiga xos kuzatuvchanlik, samimiylit boshqalardan ajralib turadi. Shoiring «Gulbahor» sarlavhali she’rida Ravshan ismli bolaning binafsha topib olishi qishloqdagi bolalarning hayrat va quvonchiga sababchi bo‘ladi.

- Bitta ko‘ray, – der biri,
- Bor ekan qanday siri?
- Islab ko‘rsam maylimi?
- Ushlab ko‘rsam maylimi?

Qo‘ldan-qo‘lga o‘tdi gul,  
Yo‘ldan-yo‘lga o‘tdi gul.  
Bir qishloqni bir kunda  
Aylanib chiqdi butkul.

Yoki «Jilg‘a» she’ridagi tasvirlar ta’sirchanligi bilan farq qiladi.

ishladi. «Jahon adabiyoti» jurnali tashkil etilgandan buyon mas‘ul kotib vazifasini bajaryapti.

F.Shohismoilning tabiatan og‘ir-bosiqligi, kamtar va kamsuqumligi uning o‘ziga ham, ijodiga ham fayz bag‘ishlaydi. Ayniqsa, bolalar uchun yozgan asarlarida yuqoridagi fikrimizning isbotini ko‘rasiz. U bo‘larbo‘lmasga nashriyotlar eshigini qoqmaydi. She’rlari maromiga yetmaguncha, gazeta va jurnallarda chop etishga oshiqmaydi. Shoiring «Bizning olam», «Irmoqlar», «Yig‘loqi bulut» singari bir talay she’riy to‘plamlari nashr qilingan. O‘ndan ortiq qo‘shiqlariga Sh.Ramazonov, B.Umidjonov va A.Mansurov kabi taniqli san‘atkorlar kuylar bastalashgan.

Bundan tashqari, Fayzi Shohismoil qardosh xalqlar adabiyotining yetuk namunalarini o‘zbek tiliga o‘girish borasida ham samarali ishlayapti. Chunonchi, Nabi Xazri, Madina Gulgun, Marvarid Dilbozi, Chingiz Ali o‘g‘li, S.Cheyz, S.Davlatov, V.Zolatuxa, A.Barikko kabi mualliflarning she’rlarini, roman hamda qissalarini tarjima qilgan.

Ijodkor tengdoshlari orasida kamtarlik va komillikning timsoliga aylangan zahmatkash do‘stimiz Fayzi Shohismoilni 70 yoshi bilan qutlab, unga sihat-salomatlik tilaymiz.

Tursunboy ADASHBOYEV



Kavsar TURDIYEVA

Bizni lo‘li ayollar  
Yoki urib ketarmish,  
Bezorilar ko‘chada.  
Tosh kesarmish oyoqni.  
Yursak ariq ichida.  
Go‘yo tushsak liftlarda,  
Qamalib ham qolamiz.  
Ruxsat bermas, desak-da,  
Yuring, havo olamiz.  
Eng yomoni, tugamas  
Oyimning yumushlari.  
Uyda tinim bilmaydi,  
Bitmas sira ishlari.  
Qaramagach bizlarga  
Arazlashni boshlaymiz.  
O‘yinchoqlarni sochib,  
Ko‘zlarimiz yoshlaymiz.  
Faqatgina mehmonga  
Kelsa Dono xolamiz,  
Toza, yengil havoni

Baland uyning yuqori  
Qavatida xonamiz.  
Yalinamiz oyimga  
«Yuring, havo olamiz!»  
Otam bizni o‘laydi,  
Onam pastga qo‘ymaydi.  
Ularning o‘ylarida  
Turli, qiziq xayollar.  
Qopga solib qo‘yarmish

### YURING, HAVO OLAMIZ!

Biz o‘shanda olamiz.  
Kuni bilan miriqib  
Horib, charchab ko‘chada,  
Xolam bilan qaytamiz,  
Uyga yarim kechada.  
Sizga aytam, kelganda  
Uyga Dono xolamiz,  
Havo bilan muzqaymoq,  
Xo‘rozqand ham olamiz.

### MEN KIMMAN?

Qani aytin, kimman men?  
O‘ylab turib jimman men.  
Oyim, dadam ertalab,  
O‘g‘lim deydi erkalab.  
Buvim, buvamga qarar,  
Men ularga nevara.  
Do‘stimga yaqin o‘rtoq,  
Yo‘lovchilarga hamroh.  
Aqida uchun sindosh,  
Qo‘shnimga mahalladosh.  
Jiyon, amma, xolamga  
Inson butun olamga.



Dilshod RAJAB Buxoro viloyati, Shofirkon tumanida tug‘ilgan. «Otamning bog‘i», «Alifbo», «Sanoq», «Hazilkashlar davrasi» kabi kitoblari chop etilgan.

O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, filologiya fanlari nomzodi. «Vaziyat» gazetasida Bosh muharrir o‘rinbosari bo‘lib ishlaydi.

### TUNGI SUHBAT

– Hoy Parvona, Parvona,  
Javob ber bu so‘roqqa:  
Nega buncha-aylanib  
O‘rgilasan chiroqqa?

– Chunki u pok, beg‘ubor,  
Kir-chirlardan forig‘dir.  
Shu qop-qora tunda ham  
Uning yuzi yorug‘dir.

### BUXORO

Boshiga oy qo‘ngan minor –  
Moziying cho‘ng mayog‘i.  
Yulduzlar jinko‘chalarining  
Ko‘targan jinchirog‘i.

### KUN BOTGACH

«Kelayotir qora vahima!»  
Bu xabarni olib shartta.  
Xabarchi yel g‘irillarydi.

Qushlar qotar uni o‘chib,  
Shoxlarga yopishib, cho‘chib,  
Yaproqchalar dirillarydi.

Borliq ichga yutar damin,  
Yashirolmay qo‘rqqanini  
Chigirkalar chirillarydi.

Qo‘rqoqlarning ustidan xo‘b  
«Vax-vax-ha!» lab kulishib sho‘x –  
Qurbaqalar qurillarydi.

### YO‘LINI BILAMAN

Qish bo‘imaslik yo‘lini  
Juda yaxshi bilaman.  
Yoki qorli dalani  
Ko‘m-ko‘k bahor qilaman.  
Yashil shisha orqali  
Atrofga boqsam bormi,  
Ko‘raman qish o‘rnida  
Yashnab turgan bahorni.

### QUYMOQ POLVON

Oyijonim Botirga  
Shirin quyomoq pishirdi.  
Men ham unga sherik bo‘lib,  
Bir chekkadan tushirdim.  
Oyim bo‘lsa «polvon» deb,  
Botirni erkaldi.  
Quymoqni men yedim-u,  
Ukam qoshiq yaladi?!

### YIG‘LOQI BULUT

Chimyonning cho‘qqisidan  
Oshib o‘tardi bulut.  
Olinmay deb cho‘qqiga  
Shoshib o‘tardi bulut.

Lekin ilinib qolib  
Etaklari so‘kildi.  
Qo‘ynidagi marvarid  
Erga duv-duv to‘kildi.




Qir-adirlar ustida  
Bulut yig‘ladi yum-yum,  
Jarliliklarning pastida  
Jilg‘a boshladi o‘yin...

### CHO‘NTAK

Dastro‘mol uchun Xolga  
Biz cho‘ntak tikib bersak,  
To‘Idirib yurar, qarang.  
Cho‘ntakka temir-tersak.

Cho‘ntak kerak Ahmadga  
Pista solib yurgani.  
Rahmatga-chi, Rahmatga  
Kir qo‘lin yashirgani.



## BO'Y O'STIRISH SIRLARI

Men va farzandlarim «Tong yulduzi» gazetasining ashaddiy muxlislarimiz. Gazetaning shu yilgi 24-noyabr sonida boshilgan muhtaram ustozimiz, tibbiyot fanlari doktori T.Ibragimovning «Bo'yi o'smay qolgan bolalar» nomli maqolalarini o'qib, men ham ustozlarimning bergen bilimlarni yodga olib, bu mavzuda o'z fikrimni bildirmoqni lozim topdim.

Insonning bo'yi taxminan 20-25 yoshgacha o'sadi. Tug'ilgandan so'ng bo'yning o'sishi birmuncha sustlashadi. 2-3 yoshdan balog'at yoshigacha bo'lgan davr mobaynida, ya'ni qizlarda 10-12 yoshgacha, o'g'il bolalarda 12-14 yoshgacha tananing o'sishi birmuncha turg'un bo'ladi. Jinsiy yetilishi davri boshlanishi bilan qizlarda 11 yoshda tana o'sishi eng yuqori darajaga yetadi, ya'ni bu davrda qizlar yiliga 8,3 sm.ga cho'ziladi, o'g'il bolalarda bu dayr 12-13 yoshga to'g'ri kelib, ular bu vaqt orasida yiliga 9,5 sm.ga o'sadi. Qizlar 17-19 yoshgacha, o'g'il bolalar esa 19-21 yoshgacha o'sadilar.

Xo'sh, bo'y o'sishi nimalarga bog'liq?

Birinchi navbatda bo'yning qanday bo'lishi irlasit bilan aloqadordir. Bola tug'ilmasdanoq uning kelgusidagi bo'yi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin. O'g'il bolalarning bo'yini quyidagi formula orqali hisoblab chiqish mumkin:

(Otaning bo'yi + onaning bo'yi x 1,08):2.

Qiz bolalarning bo'yini hisoblash uchun esa quyidagi formula tavsiya etiladi:

(Otaning bo'yi x 0,923+onaning bo'yi):2.

Bolalar va o'smirlarning ovqat ratsionida tvorog, go'sht, tuxum kabi mahsulotlarning mutazam bo'lishi tavsiya etiladi. Shuningdek, vitamin A (sabzi, baliq, jigar, ko'katlar), vitamin V (sariyog', sut, tuxum, yong'oq, qora non), kalsiy (sut mahsulotlari) va fosfor (baliq) elementlarining organizmga yetarli miqdorda tushishi ham bo'y o'stirishiga 10 foiz yordam beradi.

Bolaning kam uxlashi bo'y o'sishiga ham ta'sir qilishini ko'pchilik ota-onalar bilmasalar kerak. O'sish garmonining 70 foizi tungi uyu paytida ajralib chiqishi tajribalarda aniqlangandir. Shuning uchun bolalarning to'yib uxlashi maqsadga muvofiq bo'lur edi.

Sport bilan mutazam shug'ullanish, ayniqsa, turnikda tortilish, suvda suzish suyaklarni mustahkamlaydi, modda almashinuvni jarayonlarini tezlashtiradi, bo'g'imdagi harakatlarni rivojlantiradi, umurtqalararo disklarni tiklaydi. Bu usul bo'yni 3-5 sm.ga o'stradi. Lekin o'ta kuchli jismoniy mashqlar bo'y o'sishiga salbiy ta'sir qilishini ham unutmaslik zarurdir.

Jamila KOMILOVA,

TDTU «Ibn Sino salomatlik maskani» xodimi



## BUGUNNING

### «YANGI AVLOD»LARI

Aziz bolajonlar! «Yangi avlod – 2007» bolalar ijodiyoti festivali g'oliblari bilan tanishirishda davom etamiz. Tanishing: «Yangi avlod – 2007» festivali g'olib Navoiy shahridagi «Sozvezdiye» guruhi. Ushbu guruh muhtasham – «Istiqlol» san'at saroyida bo'lib o'tgan «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivali g'oliblarining taqdirlash marosimida o'zlarining raqlari bilan ishtirot etishdi. Ta'kidlash kerakki, ular ijrosidagi raqs tomoshabinlar tomonidan iliq kutib olindi. Ularning festivaldagagi g'olibligi kelajakdagilashlarida yana-da ko'proq mas'uliyat yuklaydi. ular endi yangidan-yangi qo'shiqlar, raqlar yaratib, muxislarni xushnud qilishlari kerak.

– Festivaldagagi g'olibligimiz bizga juda katta zavq bag'ishlaydi. O'z iste'dodimizni namoyish etganimizdek, ko'plab biz kabi iqtidorli tengdoshlarimiz bilan tanishganimizdan behad xursandmiz, – dedi «Sovezdiye» guruhi a'zolari.

Biz ham ularning yutuqlari bilan tabriklab, yangidan-yangi raqlar kutib qolamiz.

Nazokatxon va Nafosatxon TOJIBOYEVA

## E'TIBORGA NE YETSIN?!

3-dekabr – «Nogironlar kuni»



Bugungi kunda mamlakatimizda yosh avlodni har tomonlama sog'lom o'sib, kamol topishi uchun ko'plab ibratli ishlar amalga oshirilyapti. Mazkur yilimizning «Yoshlar yili» deya e'tirof etilishi barcha soha xodimlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklagani aniq.

6-sonli «Bolalar uyi»da boquvchisini yo'qotgan, tug'ma nuqsoni bor (nogiron), ruhiy kasallikka chalingan bolajonlar sog'lomlashtirilmoqda. Ayniqa, muassasaning logoped

mutaxassislarining sa'y-harakatlari bilan shu yilning o'zida besh nafar nogiron bolalar oyoqqa turdilar. 13 nafar bolalar esa «Chotqol» sihatgohida davolantirildi. Turli millatga mansub besh nafar kichkintoya xatna to'yi qilib berildi. Namangan viloyat ijtimoiy ta'minot, «Sog'lom avlod» jamg'armasi tomonidan muassasa tarbiyalanuvchisi Jamshid Toshpo'latovga nogironlik aravachasi topshirildi. Namangan shahar 1-markaziy shifoxonasi homiyligida labida nuqsoni bor Muharram Musoxonova 1-bosqich jarrohligidan o'tkazilib, salomatligi tiklandi.

Shuningdek, homiylar tomonidan «Sog'lomjon – Polvonjon», «Men ham qalam ushladim», «Men ko'p she'r bilaman», «Rasmlarda hayot aksi» kabi ko'plab tanlovlardan o'tkazib kelinmoqda.

Serhimmat homiylar esa bolajonlarni har bayramda siylashadi, sovg'alar ulashishadi.

Dardmand bolajonlarning o'ksik qalblariga yo'l topib, ular salomatligini tiklash uchun yelib-yugurayotgan markaz bosh shifokori Zamira Nazarova, hamshiralardan Munira Kamolova, Zulfiya Karimova, tarbiyachilar Fotima Zubanova, Zarifa Abubakirova, Nazira Bazarovalarning beminnat mehnatlaridan bolajonlar mammun. E'tiborga ne yetsin, shunday emasmi?! Mana shu maskanda 36 yildan buyon samarali mehnat qilib kelayotgan hamshira Manzura Ohunovaning xizmatlari yaqinda hukumatimiz tomonidan munosib taqdirlanib, «Sog'liqni saqlash a'lochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Kamola NOSIROVA,  
Namangan viloyati



Tahririyatimizga ozg'indan kelgan yosh yigitcha kirib kelib, Bosh muharirni so'radi. Muhammar ta'tidaligini eshitgach, qo'lidagi safar xaltasini u qo'lidan bunisiga olgancha o'ylanib qoldi. Bolani noqulay ahvoldan chiqarish uchun hol-ahvol so'rab, kelishdan maqsadini bildik.

– Rasmlarim bor edi, u kishiga ko'rsatmoqchi edim, – dedi.

Tahririyatimizning yigit-qizlari mehmonni bir zumda o'rab olishdi.

– Bizgayam ko'rsata qoling.

Safar-xalta ochildi. Yosh rassom

## BOLALIKNING CHEKSIZ DASHTLARI

iymanibgina asarlarini ola boshladи. Tabiat manzarasi va natyurmortlardan iborat rasmlar ko'pehilik xodimlarimizni qiziqtirib qo'ydi.

Asror Bozorov – Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanidagi Sherjon qishlog'ida o'sib ulg'aydi. 1-sinfda o'qib yurgan chog'larida bahor manzarasini chiza boshladи. Uning bu ishi hech kimni ajablantirmadi. Chunki otasi mакtabda tasviriy san'atdan dars berar, shu tufayli o'g'lining rasm chizishi ham tabiiy holdek tuyular edi. Tez orada oiladagilar Asrorming rasm chizishi oddiy bir havasga emas, unda shu sohaga mehr borligini, qo'liga qalam olganda esa butun borliqni unutib chizayotgan asari ichiga kirib ketishining guvohi bo'lishdi.

Ayni kunda Asror Toshkent madaniyat kollejining ikkinchi bosqich talabasi. Ustozlaridan rasm chizish sirlarini puxta egallamoqda. O'rol Tansiqboyevning tabiat manzaralari, Alisher Aliqulovning tarixiy mavzudagi asarlari va Ortigali Qozoqovning natyurmortlarini soatlab tomosha qilishni yaxshi ko'radi. Kollejdan so'ng Asror Behzod nomidagi san'at institutiga kirish orzusida. Bu yo'lda unga omad tilaymiz.

Yusuf FAYZULLO

Obuna - 2009

## JURNALIST BO'LAY DESANGIZ,

«O'zbekiston matbuoti»ga obuna bo'ling!

Qadrl bolalar!

Siz sevimli gazeta va jurnallaringizni yaratayotgan, qiziqarli maqolalar bilan qalbingizga ma'rifat urug'i ni sochayotgan jurnalistlarning kasbini tanlamoqchi bo'lsangiz, ko'p o'qing. Turli xabarlar yozing, nashrlarda e'lon qilingan ijod namunalarini o'qib, mahorat sirlarini o'rganing.

Boshlovchi qalamkash uchun ijod maydoniga kirish oson



O'zining eng yaxshi mashqlarini ustozlari bilan muhokama qilib, nashrlarga yuborib turish lozim.

Aziz bolalar! Agar siz chindan ham mashhur jurnalistlar safidan joy olmoqchi bo'lsangiz, «O'zbekiston matbuoti» jurnalini olib o'qing. Bu jurnal bo'lajak kasbni tanlashingizda sizga yaqin yordamchi, maslahatchi, chinakam ustoz bo'la oladi. Uning sahfalarida siz quydagi gazeta va jurnallar faoliyati bilan yaqindan tanishasiz, mohir jurnalistlar va ularning ijodi bilan oshno bo'lasiz. Xullas, bu jurnal sizning katta ijod maydoniga kirib borishingizga yo'l ochib boradi.

Agar «O'zbekiston matbuoti»ga 2009-yil uchun obuna bo'lishni xohlasangiz, istagan Aloqa bo'limiga kirib murojaat qiling, iltimosingizni bajar keltirishadi.

«O'zbekiston matbuoti» indeksi – 883.



## QUYOSHGACHA MASOFA QANCHASI?

Olimlarning aniqlashlaricha, Quyosh bundan 5 milliard yil muqaddam paydo bo'lgan. Uning atrofida nafaqat 9 ta sayyora, balki ko'plab yo'ldoshlar, asteroid va kometalar aylanadi.

Quyoshdan Merkuriygacha bo'lgan masoфа 58 million kilometrni tashkil etadi. Undan Venera – 108, Yer – 150, Mars – 228, Yupiter – 778, Saturn – 1429, Uran – 2875, Neptun – 4497 million kilometr uzoqlikda joylashgan. Quyosha eng olib sayyora esa Pluton bo'lib, oradagi masoфа 5913 million kilometrni tashkil etadi.

## SAHROI KABIR SIRI

Germaniya, Kanada va Amerikadan kelgan qator olimlar distorik geologiya institutining olimlari bilan birga Sahroi Kabirning sirini ochishdi. Bu cho'l yer yuzidagi eng issiq cho'llardan biri sanaladi. 2700 yil oldin bu yerda iqlim boshqacha bo'lgan ekan. 6 ming yil oldin Sahroyi Kabirda daraxtlar yam-yashil, ko'm-ko'k o'tlar, kichik-kichik ko'llar ham bo'lgan. Olimlar cho'lning sirini aniqlash uchun bir qator ekspeditsiyalar uyuştirishni rejalashtirmoqdalar.



## Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:  
To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahilalovchi:  
Zuhra MUHSIMOVA  
Navbatchi:  
Feruza SOYIBJON qizi

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinnbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./Faks:  
(99871) 244-38-10

Suhrob MIRZAYEV  
chizgan rasmlardan  
foydalandik

«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida chop etildi.  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.

Adadi - 24756  
Buyurtma N: J 6456

## SPORT BILAN DO'STISHIB...

Quyi sinflarda o'qiyotganimda, tengdoshlarimga nisbatan bo'yim biroz pastligidan xafa bo'lardim. Keyinchalik o'rtoqlarimga qiziqib, maktabimiz qoshida ochilgan «Turon» nomli o'z-o'zini himoya qilish sport to'garagiga qatnay boshladim. Mana uch yildirki, uning faol a'zosiman.

Avvaliga belgilangan vaqtida qisqa masofaga yugurish, qumga sakrash, arqonda yuqoriga chiqish kabi talablarni bajarishga biroz qiyalardim. Endilikda bunday mashqlarni osonlikcha bajaryapman. Sport bilan shug'ullanishim kayfiyatimni ko'tarib, boshqa fanlarni ham a'loga o'zlashtirishimga sabab bo'lyapti. Jismonan chiniqdim, bo'yim ham ancha o'sib qoldi. Muhimi, o'zimga bo'lgan ishonch mustahkamlandi.



Ustozimiz Jamshid aka Karimov bizga o'z-o'zini himoya qilish usullarini o'rgatibgina qolmay, o'zaro hurmat, do'stona munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni ham shakllantirishga harakat qiladilar. Shuningdek, kundalikdag'i baholarimizni kuzatib boradilar.

Yurtimizda nishonlanadigan har bir bayram oldidan klublararo ko'rik-musobaqa o'tkazish to'garagimiz an'anasisiga aylangan. Ana shunday musobaqlarda qatnashib, I va II o'rinnlarni qo'lga kiritganman. Qisqasi, sport bilan do'stishib, kam bo'lmayapman.

Kelajakda xalqimiz xavfsizligining himoyachisi bo'lmochchiman. Har bir xonadonning tinch-osoyishtaligi, xotirjamligini ta'minlash muqaddas orzuim.

**Shoaziz SHOHIDOEV,**  
poytaxtdagi 4-maktabning 7-«B» sinf  
o'quvchisi

## JASUR CHEMPION

– Jasur champion bo'libdi...

Bu gap barcha maktabdoshlari, ustoz va sinfdoshlarini birdek xursand qilib yubordi. U «Yoshlar yili»ga bag'ishlangan «Yoshlar giyohvandlikka qarshi» shiori ostida o'tkazilgan Jizzax o'chiq championatida birinchi o'rinni egalladi.

Jasur O'rolov Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyining 8-sinfida a'lo baholarga o'qydi. Shu bilan birga, sportning kikboksing turi bilan shug'ullanadi. Bugungi kunda ustoz ikrom aka Ergashevdan olgan saboqlarini oqlamoqda.

Ko'plab championatlarda faol ishtirot etmoqda. Jumladan, Moskvada o'tkazilgan Jahon championatida bronza, Toshkentda hamda Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Farg'on'a, Namangan, Navoiy viloyatlarida o'tkazilgan O'zbekiston championatida faxrli o'rinnlarni qo'lga kiritgan.

Jasurbek hamisha o'z ustida tinmay mehnat qiladi. Uning shiori «Intilganga tole yor». Kelgusida o'zining muvaffaqiyatlari bilan O'zbekiston nomini yana-da ko'z-ko'z qilish.

Biz esa unga omad tilaymiz.

**Madina MIRZAQOBILOVA,**

O'zDJTU qoshidagi Uchtepa akademik litseyining 2-bosqich talabasi



«Yong'in xavfsizligi oyligi» davom etyapti

## OGOH BO'LING!

Tilsiz yov bilan kurashish faqatgina yong'in xavfsizligi xizmati xodimlarining ishi emas, balki har bir fuqaroning burchidir. Quyidagi yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilinsa, barcha baloning oldi olingen bo'lar edi.

Ochiq alangadan foydalanilayotganda, ehtiyyotkorlik choralarini ko'rish.

Elektr va gaz asboblarini doimo soz holda tutish.

Agar binoda yong'in bo'layotgan bo'lsa, ushbu shoshilinch choralarini qo'llashni bilish har birimiz uchun o'ta muhim.

1. Telefonda 01 raqamini terib, o't o'chiruvchilarni chaqiring.

2. Atrofingizdagи odamlarni yong'in bo'layotgani haqida ogohlantiring.

3. Deraza va darchalarni yoping.

4. Bino elektr tarmog'ini yoki elektr asboblarini o'chiring.

5. O't o'chirish anjomlaridan foydalanib, yong'inni o'chirishga harakat qiling.

6. Agar yong'inni o'chirishga kuchingiz

yetmayotgan bo'lsa, xavfli hududdan chiqib keting. Binodan chiqayotganingizda, ko'zingizni va nafas olish yo'llarini tutandan himoya qiling.

7. Agar tutunda adashib qolsangiz, tutun yo'naliishi bo'yicha harakat qiling.

8. O't o'chiruvchilar yetib kelganda, nima yonayotgani va qayerda yong'in bo'layotganini tushuntiring.

Ko'p qavatli binoning kirish yo'lagida yong'in bo'layotgan bo'lsa:

1. Telefonni 01 raqamini terib, o't o'chiruvchini chaqiring.

2. Xonadoningizdan chiqib ketayotganingizda quyidagi qoidalarni yodda tuting:

Zinapoya bo'ylab harakat qiling.

3. Xonadoningizdan chiqish yo'llari olov bilan to'silgan bo'lsa, eshlarni yoping.

Aziz bolajonlar! Agar har birimiz ziyrak bo'lib, beparvollikka yo'l qo'ymasak, bunday hodisalardan himoyalangan bo'lib, xotirjam yashagan bo'lar edik.

**R.A.MUHAMMADJONOV,**  
YOXB 12-XYOXO inspektor, mayor

## Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:

To'lqin HAYITOV

Dizayner va sahilalovchi:  
Zuhra MUHSIMOVA  
Navbatchi:  
Feruza SOYIBJON qizi

Gazeta  
O'zbekiston  
Matbuot va  
axborot  
agentligida  
0208-raqam  
bilan 2007-yil  
2-fevralda  
ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
G'ayrat SHOUMAROV,  
Dilbar ALIMJONOVA,  
Qahramon QURANBOYEV,  
Jabbor RAZZOQOV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinnbosari),  
Dilmurod RAHMATILLAYEV,  
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:  
700129,  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: tong1924@mail.ru  
Tel: 244-27-25, 244-63-08  
Tel./Faks:  
(99871) 244-38-10

Suhrob MIRZAYEV  
chizgan rasmlardan  
foydalandik

«O'zbekiston»  
nashriyot-matbaa ijodiy  
uyida chop etildi.  
Haftaning  
dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3,  
2 bosma taboq.

Adadi - 24756  
Buyurtma N: J 6456